

## BOSHLANG'ICH SINF O'QUVCHILARIGA INGLIZ TILINI OSONROQ O'RGAATISH USULLARI

*Ilmiy rahbar: Salieva Ziroat Zokirovna*

*Rashidova Irodabonu Komilovna*

*Samarqand davlat chet tillar institute Xorijiy til va adabiyot*

*(Ingliz tili) 2-kurs talabasi 2305-guruh*

*Elektron pochta manzili: [rashidovairodabonu2005@gmail.com](mailto:rashidovairodabonu2005@gmail.com)*

*Telefon raqami: +998938958040*

**Annotatsiya.** Hozirgi kunda ingliz tili jahon tillaridan biriga aylanganligi sababli, bu tilni o'rganish juda ham muhim sanaladi. Chunki, dunyodagi ko'plab inson ingliz tilida suhbatlashadi. Bundan tashqari, internet tarmoqlaridagi ma'lumotlarning katta qismi ingliz tilida kiritilgan. Shuning uchun ham, o'quvchi yoshlarga ingliz tilini o'rnatish juda ham muhim sanaladi. Xususan, ko'plab o'qituvchilar ham yoshlarga ingliz tilini o'rnatishga harakat qilishadi. Lekin, til o'rnatish unchalik ham oson emas. Shuning uchun ham, ushbu maqolada boshlang'ich sind o'quvchilariga, ularning yoshi va xususiyatlarini hisobga olgan holda, ingliz tilini oson o'rnatishning samarali yo'llari keltirilgan. Maqolada keltirib o'tilgan metodlar va usullar yordamida kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning til o'rganishlarini tezlashtirish mumkin.

**Abstract:** Nowadays, English has become one of the world's most widely spoken languages, making it extremely important to learn. Many people around the globe communicate in English, and a large portion of information available on the internet is also in English. For this reason, teaching English to young learners is essential. Many teachers also strive to teach English to young students, yet language teaching is not always an easy task. Therefore, this article presents effective methods for teaching English to primary school students by considering their age and unique characteristics. With the methods and approaches discussed in this article, it is possible to accelerate language learning among young school-age students.

**Аннотация:** В настоящее время английский язык стал одним из мировых языков, поэтому его изучение имеет большое значение. Это связано с тем, что многие люди в мире общаются на английском языке. Кроме того, значительная часть информации в сети Интернет представлена на английском языке. Поэтому обучение английскому языку школьников является крайне важным. В частности, многие учителя прилагают усилия для обучения молодежи английскому языку. Однако обучение языку не является простым процессом. В связи с этим, в данной статье представлены эффективные методы облегченного обучения английскому языку для учеников начальных классов с учетом их возраста и особенностей. Применяя описанные в статье методики и подходы, можно ускорить процесс

изучения языка учащимися младшего школьного возраста.

**Kalit so'zlar:** ingliz tili, boshlang'ich sinf o'quvchilar, samarali usullar.

**Keywords:** English language, primary school students, effective methods.

**Ключевые слова:** английский язык, ученики начальных классов, эффективные методы.

## KIRISH

Ingliz tili bugungi kunda butun dunyo bo'y lab aloqa va o'qish uchun eng muhim tillardan biri sifatida qabul qilinadi. Xususan, bizning yurtimizda ham ingliz tilini o'rganishga talab juda ham katta. Chunki, ingliz tili xalqaro aloqa vositasi hisoblanadi, ya'ni, ingliz tili global tilga aylangan. Ko'plab davlatlarda ingliz tilini ikkinchi til sifatida o'qitishadi. Xalqaro konferensiyalar, ilmiy maqolalar va biznes uchrashuvlari asosan ingliz tilida o'tkaziladi. Bundan tashqari, internetdagi ko'plab axborot manbalari ingliz tilida yozilgan. Bu til orqali insonlar ko'plab yangi bilim va malakalarga ega bo'lishlari mumkin. Bunda nafaqat yangiliklar, balki turli o'quv materiallari, o'rgatuvchi videolar va maqolalar ham ingliz tilida bo'ladi. Ko'plab ilmiy ishlanmalar, texnik hujjatlar, dasturiy ta'minot tillari ham ingliz tiliga asoslangan. Internetdagi ko'plab yangiliklar ham birinchi navbatda ingliz tilida paydo bo'ladi. Shu sababli ingliz tilini bilish zamonaviy ilm-fan va texnologiyalardan xabardor bo'lishda muhimdir. Dunyodagi eng nufuzli universitetlar va ta'lim muassasalarining ko'pchiligi ingliz tilida ta'lim beradi. Ingliz tilini bilish ko'plab universitetlarga kirish imkoniyatini oshiradi. Ingliz tilini bilish ko'plab madaniyatlar bilan tanishishga, kitoblar, filmlar va musiqa orqali turli xalqlar an'analari va qadriyatlarini o'rganishga imkon beradi.

Odatda boshlang'ich sinf o'quvchilari 6-10 yosh oralig'ida bo'ladilar. Bu yoshda bolalar tez rivojlanadi, ularning intellektual va emotsiyal darajasi shakllanib boradi. Bu yoshdagи bolalar juda qiziquvchan bo'lib, hamma narsani bilishni xohlashadi. Ular ko'pincha atrofdagi narsalar haqida savollar beradilar va o'z kuzatuvlarini tezda o'rganadilar. Ularda tasavvur juda ham kuchli bo'ladi.

Shuning uchun ham ingliz tilini o'rganish uchun bo'lgan talab kundan-kunga ortib bormoqda. Lekin, boshlang'ich sinfda tahsil oladigan o'quvchilar uchun ingliz tilini o'rganish ko'plab qiyinchiliklarni keltirib chiqariyapti. Chunki, kichik sinflarda tahsil olayotgan o'quvchi yoshlarimiz birdaniga katta ma'lumotni o'rganolmaydi. Agarda, bir ularni majburlab o'qitsak, bu ularning ruhiyatiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Vaholanki, biz kichik mакtab yoshidagi o'quvchilarga ziyon keltirmagan holda yangi bilimlarni o'rgatishimiz kerak. Biz bilamizki, kichik mакtab yoshidagi o'quvchilar o'zining o'tkiz zehni va kuchli xotirasi bilan boshqa yoshdagи bolalardan keskin farq qiladi. Lekin, til o'rganish juda ham mashaqqatli ish bo'lganligi sababli, ularda turli qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Birinchi navbatda, biz biron tilni o'rganmoqchi bo'lsak avvalo lug'at yodlashimiz kerak bo'lgani kabi ingliz tilini

o'rganish uchun ham lug'at yodlash kerak bo'ladi. Lekin, bu kichik yoshdag'i o'quvchilar uchun ancha qiyinlik qiladi. Chunki, ular lug'at yodlashiyotganda o'zlarining tillariga butkul begona bo'lgan so'zlarga yuzlashishadi. Bu esa tabbiyki, ular uchun katta muammoni yuzaga keltiradi. Ikkinchidan, so'zlarni talaffuz qilishda ham turli tuman qiyinchiliklarga duch kelishadi. Chunki, ingliz tilida so'zlarning o'qilishi va yozilishi har xil. Bundan tashqari, kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning ko'pchiligi ingliz tili grammatikasini o'rganishda ham ba'zi qiyinchiliklarga duch kelishadi. Chunki, bu yoshdag'i o'quvchilarning ko'pchiligi ona tilidagi grammatikani ham yaxshi bilmaydi.

Bu yoshdag'i o'quvchilarga bilim berar ekanmiz, ularning yoshini alohida inobatga olishimiz zarur. Shuni e'tiborga olish kerakki, 6–7 yoshli bolalar ma'lumotlar ma'nosini tushunib emas, uni mexanik tarzda yodlaydi. Shuning uchun boshlang'ich sinf o'quvchilariga ingliz tilini o'rgatishni grammatik tushuncha berishdan boshlamaslik zarur. Aks holda chet tilini o'rgatishning dastlabki qadamidanoq bolani zo'riqtirib qo'yish va qiziqishini so'ndirib qo'yish mumkin. Shunday ekan, kichik yoshdag'i bolalarga xorijiy tilni o'rgatish ancha mushkul va mas'uliyatl. Bolalarga ingliz tilini mazmunli va qiziqarli o'rgatish uchun quyidagi usullardan foydalanish mumkin: [2; 221b]

- qo'shiq va she'rlar orqali tushuntirish yoki esda qolishi qiyin bo'lgan, ma'noga ega bo'limgan harf yoki birikmalarni kuyga solib o'rgatish. Bunga misol qilib, bolalarning ingliz tili alifbosini qo'shiq qilib o'rganishlari shunchaki yodlashdan ko'ra samarali ekanligini ko'rsatish mumkin. [2; 221b]

- multfilmlar; Bolalar til o'rganish mobaynida multfilmdagi gaplarni tushunmasada, multfilm qahramonlarining harakatlari orqali ular ishlata yotgan so'zlarni tushunishga intiladi. Bu esa bolalar uchun qiziq va til o'rganishlari uchun samarali yo'l. [2; 221b]

-har xil turdag'i o'yinlar foydalanish. O'yinlar dars mavzusiga oid bo'lishi kerak. Boshlang'ich sinf o'quvchilarda o'ynashga bo'lgan qiziqish, bilim olishga bo'lgan qiziqishdan ko'ra kuchliroq bo'ladi. Shuning uchun ham o'yinlar bolalarning diqqatini jalb qiladi va ularga muloqotni o'rgatadi. Bu orqali yangi bilimlarni tez va oson o'zlashtiradilar.

-ko'rgazmali qurollardan ko'proq foydalanish. Boshlang'ich sinf o'quvchilari mavzularni amaliyot orqali va o'z ko'zi bilan ko'rib o'rganganida yaxshiroq tushunadilar.

-jamoaga bo'lingan holda dars o'tish. Bu yoshda bolalar guruh bo'lib ishlashni, bir-birlarini tushunishni va yordam berishni o'rganadilar.

-rasmli va audioli lug`atlardan foydalanish. Hozirgi technologiyalar asrida zamonaviy metodlarni smart ta`lim vositalari orqali qo'llash ommalashmoqda. Chunki bir qancha tajribalarda kichik yoshdag'i bolalar rangli, ovozli, videoli,

e`tiborni jalb qiluvchi ma`lumotlarni osonroq eslab qolishi isbotlanmoqda. [1; 24b]

-pictionary, ya`ni rasm chizish bilan eslab qolish metodi orqali ingliz tilini o`rgatish. Yuqorida aytib o'tganimizdek, bu yoshdagi o'quvchilarda tasavvur kuchli bo'ladi, shuning uchun ham ular ko'rgan narsasini eshitgan narsasidan ko'ra tezroq eslab qola oladi. [1; 24b]

## **XULOSA**

Xulosa qilib aytganda, O'qituvchi bu yoshdagi bolalar uchun nafaqat bilim beruvchi, balki o'rnak ko'rsatuvchi va yo'l ko'rsatuvchi hamdir. Shuning uchun ham biz yoshlarga bilim berish uchun astoyidil harakat qilishimiz zarur. Agarda biz yuqorida ko'rsatib o'tilgan metodlardan foydalansak, o'quvchi yoshlarning til o'rganishini anchagina osonlashtirgan bo'lamiz. Chunki, boshlang'ich sinf o'quvchilari bilan ishlashda ularning tabiatini tushunish va ularga mos yondashuvni tanlash juda muhim sanaladi va biz keltirib o'tgan metodlarimizning barchasi kichik maktab yoshidagi o'quvchilarning qiziqish doirasidan kelib chiqqan. Bundan tashqari, ularni bilim olish jarayoniga jalb qilish oson bo'lsa-da, ularning diqqatini saqlash va rag'batlantirish ustida doim ishslash zarur. Iloji boricha o'quvchilarni dars davomida turli xil usullarda maqtashimiz va vaqtি-vaqtি bilan dakki berib turishimiz kerak.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:**

1. Aralova Shahrizoda Anvar qizi. Qarshi davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi. Rustamova Mohinur Xurshid qizi Qarshi davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti 2-bosqich talabasi. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini zamonaviy metodlar va smart ta`lim texnikalari yordamida o`qitish metodikasi. Social science and education -социальныенаукииобразование–ijtimoiy soha va ta'lim.-2024. №5.-24-25p.
2. Boboqulova Madina Mirzohid qizi. Qo'qon universiteti Iqtisodiyot fakulteti 3-bosqich talabasi. Boshlang'ich sinflarda ingliz tilini o`qitish metodikasi. Science and innovation international scientific journal.- 2022. № 2.- 221p.  
<https://doi.org/10.5281/zenodo.6607290>